

O'ZBEKISTONDA MOLIYAVIY HISOB XALQARO STANDARTLARINI JORIY QILISHNING AMALIY JIHATLARI

Termiz Davlat Universiteti Magistranti
Do'smuxamedova Nozima Xamidullo qizi

Annotatsiya: *O'zbekiston korxonalarining buxgalteriya hisobi amaliyotini xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga moslashtirish jarayonida yuzaga keladiga muammolarni hal qilishdir.*

Abstract: *It is to solve the problems that arise in the process of adapting the accounting practice of Uzbekistan enterprises to international financial reporting standards.*

Kalit so'zlar: *Moliyaviy hisobot xalqaro standartlari (MHXS), iqtisodiyotining uyg'unlashuvi, buxgalteriya hisobining modellari, xorij investitsiyalar.*

O'zbekiston bozor munosabatlarining rivojlanishi va takomillashishi, moliyaviy – iqtisodiy faoliyat ob'ektlarining kengayishi global iqtisodiy tizimga keskin ravishda integratsiyalashuviga bo'lgan intilish jahon tajribasini o'rganish, tahlil qilish, nazariy tushunish va amaliyotda qo'llash zaruratini keltirib chiqaradi.

Biroq, bu ishda jahon tajribasidan qanchalik va qanday foydalanish kerak degan savol ko'plab iqtisodchi olimlarning bahs-munozaralariga sabab bo'lmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi 2020 yil 24 fevraldagi PQ-4611 qarori yurtimizda hisob siyosatida yangi sahifa ochildi. Mazkur qaror bilan 2021 yildan boshlab MHXSga o'tishi kerak bo'lgan tashkilotlar ro'yxati tasdiqlandi va shu ro'yxatda belgilangan tashkilotlarning buxgalteriya xizmati bo'limida MHXS ko'nikmasiga ega bo'lgan kamida uchta sertifikatlangan mutaxassis bo'lishi lozimligi ko'rsatib o'tildi.

Ushbu qarorning ahamiyatli jihatlaridan biri shuki, bu MHXS hujjatlarini O'zbekiston Respublikasida tan olinish masalasini hal qilib berdi. MHXS hujjatlarining tan olinishi va uni qo'llaydigan kompaniyalarning belgilab berilishi, ushbu kompaniya hisobchi va moliya mutaxassislaridan o'z malakasi ustida doimiy ishlashi va mas'uliyatni jiddiy his etishini talab etadi.

Prezident qarori bu yangi iqtisodiy bilim va koniklamarni talab etadi. Shu sababda bir qator internet tarmoqlarda norozi va nolishlar buxgalterlar tomonidan bildirilishi mumkin. Yangi bilimlarni egalash va o'zlashtirish, bir qobiqqa va ko'rinishga o'rganib yangi ishlash uslubini bilish mashaqqat va mehnat talab qiladi. Ammo hozirgi kundagi dunyo iqtisodiyotidagi real holat shuki, buxgalter faoliyatining asosi moliyaviy axborot foydalanuvchisi manfaati, ya'ni investor va qaror qabul qiluvchi mulkdorlar, boshqacha emasligi afsus, ko'pgina korxonalar, tashkilot kompaniya va banklar rahbarlari tushunmaydi yani buxgalterlar vazifasi soliq

hisobotlarini to'g'iri va o'z vaqtida topshirish yoki nazorat va tekshiruv uchun hisob kitob yuritadi dep o'ylaydi.

MHXSga o'tish natijasida erishiladigan amaliy afzalliklar quyidagilardan iborat:

- moliyaviy tahlilchilar va investorlar uchun moliyaviy hisobotlarning aniqligi, taqqoslanish, ma'lumotlarning oshkoraligi, kam tahlil xarajatlari;

- aktivlarni baholashning bozor mexanizmlari – amalda aktivlar va majburiyatlarning dastlabki qiymati va uning joriy bozor qiymatidan foydalanish investor uchun ham tashkilotning o'zi uchun ham samarali qarorlar qabul qilishga yordam beradi; moliyaviy instrumentlarni qo'llash qulayligi – MHXS hujjatlari zamonaviy biznes yo'nalishlari va operatsiyalarni aks ettirish usullarini yetarli darajada tez-tez qayta ko'rib chiqilishi mamlakatda moliyaviy instrumentlardan foydalanish imkoniyatlarini oshiradi;

- aktivlar qadrsizlanishini o'z vaqtida aks ettirish – amaldagi hisob standartlari aktivlar qadrsizlanishi riski bo'yicha choralar ko'rishni talab etmaydi. Natijada yirik kompaniyalarda aktivlar summasining oshirib ko'rsatilish riskini yuzaga keltiradi. MHXS standartlari bunday risklarning oldi olinishi uchun zaruriy talablarni qo'yadi;

- shartli aktiv va baholangan majburiyatlar bo'yicha aniq ko'rsatmalar – foydalanuvchilar to'g'ri qaror qabul qilishlari uchun nafaqat hujjatlarga asoslangan operatsiyalar to'g'risidagi axborot, balki kelajakda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan hodisalar oqibatini joriy hisobotlarda aks ettirish ham muhim ahamiyat kasb etadi;

- konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlar tuzish – ko'pchilik yirik kompaniyalar o'zining tarkibiga kiruvchi korxonalarini hisobga olgan holda jamlama hisobotlarni tuzmoqda, lekin ularni tuzishda zamonaviy konsolidatsiyalash mexanizmlarini hisobga olmasligi, ushbu kompaniyalar guruhining haqiqiy ahvoli ko'rinmay qolishiga sabab bo'lmoqda. MHXS bo'yicha konsolidatsiyalashgan hisobot moliyaviy hisobotning alohida maxsus tarkibiy qismi hisoblanadi va unga nisbatan maxsus talablar mavjud.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarga asoslanib, O'zbekiston buxgalteriya hisobini xalqaro moliyaviy hisob standartlariga moslashtirish tartib qoidalarini ishlab chiqish hozirgi kunda O'zbekistonda ayniqsa dolzarb ekanligini ta'kidlash mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi 2020 yil 24 fevraldagi PQ-4611 qarori yurtimizda hisob siyosatida yangi sahifa ochildi.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasining 2021 – 2023 yillarga mo'ljallangan Investitsiya dasturini amalga oshirish chora – tadbirlari to'g'risida”gi (PQ-4937-son. 28.12.2020y.) Qarori. // www.lex.uz



3. NORBEKOV D. E, OCHILOV I.K “MOLIYAVIY HISOBOTNING
XALQARO STANDARTLARI” FANIDAN O’QUV-USLUBIY MAJMUA
TOSHKENT-2019

4. [http:// www.lex.uz](http://www.lex.uz) (O’zbekiston Respublikasi Qonunchilik portali);

5. [http:// www.library.ziyonet.uz](http://www.library.ziyonet.uz);